XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - iyul VI-72-80-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kitob tumani Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Shoimov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Egamberdiyev B.B**